

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI  
VAZIRLIGI  
ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UO‘K: 657.1:005.52:664.7(575.122)**

**Chinberdiyeva Lazokatxon Raxmatjonovna**

**Donni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv tahlilini takomillashtirish**

**08.00.08 – «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY  
DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: A.T.Mamajonov, i.f.f.d., professor**

**Toshkent - 2025**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘YEKTLAR BOSHQARUV TAHLILINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>11</b>
1.1-§. Xo‘jalik yurituvchi sub'yektlarda boshqaruv tahlili tushunchasining iqtisodiy mohiyati, asosiy tamoyillari va usullari.....	11
1.2-§. Boshqaruv tahlilini axborot manbalari bilan ta'minlash va ularni javobgarlik markazlari kesimida tashkil etish tajribasi.....	27
1.3-§. Donni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv tahlilini tashkil etish bosqichlari.....	35
I bob bo‘yicha xulosa.....	43
<b>II BOB. DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BOSHQARUV TAHLILINI XO‘JALIK JARAYONLARI BO‘YICHA TASHKIL ETISH.....</b>	<b>45</b>
2.1-§.Ta'minot jarayonlari boshqaruv tahlilining tashkiliy va uslubiy jihatlari.....	45
2.2-§. Ishlab chiqarish jarayonlari boshqaruv tahlilini amalga oshirish yo‘llari.....	63
2.3-§. Donni qayta ishlash korxonalarida mahsulot sotish jarayonining boshqaruv tahlili.....	79
II bob bo‘yicha xulosa.....	91
<b>III BOB. XO‘JALIK FAOLIYATINING ELEMENTLARI BO‘YICHA BOSHQARUV TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>93</b>
3.1-§. Boshqaruv tahlilida mehnat resurslari samaradorligini aniqlashni takomillashtirish. ....	93
3.2-§. Korxonada marketing faoliyati tahlilini takomillashtirish.....	112
III bob bo‘yicha xulosa.....	123
<b>Xulosa va takliflar.....</b>	<b>125</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>128</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>135</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va dunyo aholisining keskin oʻsib borishi dunyo mamlakatlari oldida oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash muammosini keltirib chiqarmoqda. Eʼtirof etish joizki, dunyo aholisining asosiy isteʼmol savatiga kiruvchi mahsulotlar tarkibida un va un mahsulotlari yetakchi oʻrinni egallaydi. Jumladan, bugungi kunda “dunyo boʻyicha yetishtirilgan bugʻdoyning taxminan 70 foizi oziq-ovqat uchun, 20 foizi chorvachilik uchun va 2-3 foizi sanoat sohasida ishlatiladi”<sup>1</sup>. Bu ehtiyojni qondirish dunyoning yetakchi mamlakatlari bozorining asosiy ishlab chiqarish tarmogʻi donni qayta ishlash sohasini yanada rivojlantirishni talab etadi.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiyotni globallashuvi natijasida donni qayta ishlash korxonalarida mahsulotning raqobatbardoshligini, investitsion jazibadorlikni, boshqaruv xodimlarining tashabbuskorligini oshirish uchun xizmat qiluvchi boshqaruv tahliliga yoʻnaltirilgan koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Boshqaruv tahlilida ishonchli axborot manbalaridan foydalanish, operatsion jarayonlarning samaradorligini oshirish, tavakkalchilik va havf-xatarlarni nazorat qilish hamda ularning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, zamonaviy dasturlarni qoʻllash orqali boshqaruv tahlilini yanada samarali amalga oshirish, taktik va strategik maqsadlarni belgilash hamda ularni amalga oshirish uchun koʻmak beruvchi boshqaruv tahlili metodologiyasini yaratish ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan respublikamizda, “soʻnggi yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablagʻlarini jalb qilish va eksport faoliyatini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksport hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi”<sup>2</sup>. Bu koʻrsatkichlar respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirish borasida olib borilayotgan izchil islohotlarning natijasidir. Shuningdek, Oʻzbekiston

---

<sup>1</sup> Finance.yahoo

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 16 fevral 2024 yildagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/6802687>

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida: “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish; Sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish; Ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish; Agrosanoat korxonalarini xom ashyo bilan ta‘minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga oshirish”<sup>3</sup>, - vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishini ta‘minlash uchun donni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv tahlilini takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib, bu sohaning ilmiy, uslubiy va huquqiy asoslarini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-sonli “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda 2006-yil 25-maydagi 95-sonli “Don va donni qayta ishlash mahsulotlari hisobini yuritish tizimini takomillashtirishga, ularning saqlanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori va sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muhim ahamiyatga ega bo‘lib xizmat qiladi.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** “Donni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv tahlilini takomillashtirish” masalalari mavzusida bir qator xorijiy va mahalliy olimlar o‘zlarining tadqiqotlarini olib borishgan. Mazkur masala xorijlik olimlardan A.D.Sheremet, M.A.Vaxrushina, N.A.Kazakova, S.A.Boronenkova, O.E.Bulekov, E.N.Daderkina, O.N.Volkova, S.V.Kostin, E.S.Pilyugina,

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.

N.A.Nikiforova, L.B.Samarina, L.B.Popova, Ya.V.Formulevichning ilmiy ishlarida keng o‘rin olgan.

Mamlakatimiz olimlari N.F.Ishonqulov, M.Q.Pardaev, B.A.Xasanov, A.X.Shoalimov, A.V.Vahobov, E.Yergeshev, R.O.Xolbekov, A.T.Mamajonov, Z.Toshkenboyeva va ko‘plab olimlarning ilmiy ishlari ham mazkur yo‘nalishning ma’lum uslubiy tomonlarini o‘z ichiga olgan.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** donni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv tahlilini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni shakllantirish va hal qilishni oldindan belgilab berdi:

boshqaruv tahlilining iqtisodiy mohiyati, tamoyillari, usullari va uning muhim xususiyatlarini ochib berish;

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot-tahliliy ta’minotini shakllantirishning mavjud nazariy yondashuvlarini tahlil qilish va donni qayta ishlash korxonalarida axborot manbalarini javobgarlik markazlari bo‘yicha shakllantirish zaruriyligini asoslab berish;

ta’minot jarayoni boshqaruv tahlilida qo‘llaniladigan iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish va ishlab chiqarish zaxiralarining holatini optimallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda xarajat-hajm-foyda tahlili asosida moliyaviy barqarorlik zaxirasining omilli tahlili uslubiyotini takomillashtirish;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ichki resurslaridan foydalanish va tashqi imkoniyatlari tahliliga asoslanib korxonaning mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga baho berish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

donni qayta ishlash korxonalarida daromadni oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida marketing salohiyati ko‘rsatkichlarining prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;

**Tadqiqot ob’yekti** bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi donni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv tahlili hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** donni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv tahlilini takomillashtirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida guruhlash, taqqoslash, kuzatish, mutloq va nisbiy miqdordardagi farqlar, indeks, statistik tahlil, iqtisodiy-matematik usullar, SWOT tahlil, SVP tahlil, ABS tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

donni qayta ishlash korxonalarida moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini “iqtisodiy muhim”, “o‘rta ahamiyatli”, “kam ahamiyatli” toifalarga ajratish orqali ta‘minot zanjirini to‘g‘ri boshqarish, moliyalashtirish manbalarini samarali taqsimlash, zaxiralar holatini optimallashtirish asoslangan;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda xarajat-hajm-foyda (Cost-Volume-Profit) tahlili asosida moliyaviy barqarorlik zaxirasining omilli tahlilidan foydalanish orqali xarajatlarni nazorat qilish va strategik rejalarni tuzish taklifi ishlab chiqilgan;

mehnat resurslari samaradorligining kompleks boshqaruv tahlili asosida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini “yuqori” (85-100 ball), “yaxshi” (70-84 ball), “qoniqarli” (50-69 ball), “past” (30-49 ball) chegaralari oralig‘ida baholash orqali mehnat resurslari samaradorligiga baho berish va mehnat resurslarini boshqarish yuzasidan qarorlar qabul qilish asoslangan;

“Andijondonmahsulot” AJning marketing salohiyatini yaxshilashga asoslangan sotishdan tushgan tushum, sotish xarajatlari, innovatsion mahsulot ulushining 2028-yilga qadar mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

donni qayta ishlash korxonalarida moddiy ishlab chiqarish zaxiralari va uning moliyalashtirish manbalarini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish xom ashyo zaxiralarini yaratish va nazoratini amalga oshirish, keyingi davr uchun ta‘minot jarayonini rejalashtirish, shuningdek, mavjud mablag‘larni boshqa loyihalarga yo‘naltirish yoki inqirozga yuz tutilishining oldini olish imkoniyati kengaytirilgan;

donni qayta ishlash korxonalarida moliyaviy barqarorlik zaxirasining o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillarning ta‘sir darajalarini aniqlash va xarajatlarni nazorat qilish shuningdek, korxonaning kelgusi faoliyati yuzasidan qarorlar qabul qilish imkoni yaratilgan. Mahsulot hajmi va ishlab chiqarish xarajatlarining muvozanatini ta‘minlash asosida moliyaviy barqarorlik zaxirasini oshirishga erishilgan;

mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining kompleks tahlili asosida ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilar va boshqaruv xodimlarining samaradorlik darajasini tahlil qilish va baholash metodologiyasi takomillashtirilgan;

marketing faoliyatini amalga oshirishda prognoz ko‘rsatkichlari parametrlari asosida korxonaning ichki resurslaridan foydalanish va tashqi imkoniyatlarini oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqishda foydalanish tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishida foydalanilgan ma‘lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi korxonalarining rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanganligi hamda xulosa va takliflarning tegishli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyaning ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalaridan donni qayta ishlash korxonalarini boshqaruv tahlilini takomillashtirish, kelajakda maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda va unga doir maqsadli dasturlar, chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan donni qayta ishlash korxonalarini boshqaruv tahlilini takomillashtirish, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiy tahlil", "Moliyaviy tahlil" va "Boshqaruv tahlil" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot olib borish davomida quyidagilar ilmiy natijalar sifatida asos qilib olindi:

donni qayta ishlash korxonalarida moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini "iqtisodiy muhim", "o'rta ahamiyatli", "kam ahamiyatli" toifalarga ajratish orqali ta'minot zanjirini to'g'ri boshqarish, moliyalashtirish manbalarini samarali taqsimlash, zaxiralar holatini optimallashtirish taklifi O'zbekiston auditorlar Palatasi, "Andijondonmahsulot" aksiyadorlik jamiyati, "Asaka don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston auditorlar Palatasining 2024-yil 28-maydagi 56-sonli, "Andijondonmahsulot" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 29-maydagi 01/14-122-sonli, "Asaka don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 30-maydagi 01/316-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklif donni qayta ishlash korxonalarida xom ashyo zaxiralarini yaratish va nazoratini amalga oshirish, keyingi davr uchun ta'minot jarayonini rejalashtirish, shuningdek, moliyaviy mablag'larni samarali taqsimlash asosida barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda xarajat-hajm-foyda (Cost-Volume-Profit) tahlili asosida moliyaviy barqarorlik zaxirasining omilli tahlilidan foydalanish orqali xarajatlarni nazorat qilish va strategik rejalarni tuzish taklifi O'zbekiston auditorlar Palatasi, "Andijondonmahsulot" aksiyadorlik jamiyati, "Asaka don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan



(O‘zbekiston auditorlar Palatasining 2024-yil 28-maydagi 56-sonli, “Andijondonmahsulot” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 29-maydagi 01/14-122-sonli, “Asaka don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 30-maydagi 01/316-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida donni qayta ishlash korxonalarida moliyaviy barqarorlik zaxirasining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning ta’sir darajalari aniqlangan va xarajatlarni nazorat qilish shuningdek, korxonaning kelgusi faoliyati yuzasidan qarorlar qabul qilish imkoni yaratilgan;

mehnat resurslari samaradorligining kompleks boshqaruv tahlili asosida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini “yuqori” (85-100 ball), “yaxshi” (70-84 ball), “qoniqarli” (50-69 ball), “past” (30-49 ball) chegaralari oralig‘ida baholash orqali mehnat resurslari samaradorligiga baho berish va mehnat resurslarini boshqarish yuzasidan qarorlar qabul qilish taklifi O‘zbekiston auditorlar Palatasi, “Andijondonmahsulot” aksiyadorlik jamiyati, “Asaka don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston auditorlar Palatasining 2024-yil 28-maydagi 56-sonli, “Andijondonmahsulot” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 29-maydagi 01/14-122-sonli, “Asaka don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 30-maydagi 01/316-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga baho berish va samaradorlik darajasini yaxshilashga qaratilgan maqsadlarni amalga oshirish imkoni yaratilgan;

“Andijondonmahsulot” AJning marketing salohiyatini yaxshilashga asoslangan sotishdan tushgan tushum, sotish xarajatlari, innovatsion mahsulot ulushining 2028-yilga qadar mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan ilmiy taklifi (O‘zbekiston auditorlar Palatasining 2024-yil 28-maydagi 56-sonli, “Andijondonmahsulot” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 29-maydagi 01/14-122-sonli, “Asaka don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 30-maydagi 01/316-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi

natijasida korxonani istiqbolini rejalashtirish va iqtisodiy ko'rsatkichlar darajalarini oshirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 131 betni tashkil etadi.

## **Xulosa va takliflar**

Donni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv tahlilini takomillashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Innovatsion va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi har bir sohada yangicha yondashuv va fikrlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Korxonalarni boshqarishda zamonaviy uslublarni joriy etish, samaradorlikka erishish uchun ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish, belgilangan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarish, muammolarni ilmiy va ijodiy yondashuv orqali hal qilish davr talabiga aylangan. Bugungi kunda korxonalarning erishayotgan natijalari ularning kelajakdagi barqaror rivoji uchun poydevor bo'lib, taktik va strategik maqsadlarga erishish yo'lidagi boshqaruv tahlilining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu sababli xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda boshqaruv tahlilini amalga oshirish va uni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

2. Tadqiqotlar natijasida korxonalarda boshqaruv tahlilini tizimli amalga oshirish iqtisodiy samaradorlikka erishishning muhim dasturi ekanligi isbotlandi. Iqtisodiy samaradorlikning yakuniy natijasi moliyaviy samaradorlikka erishishning asosini tashkil etadi. Aksiyadorlik jamiyatlarini strategik boshqarish, boshqaruv hodimlarining samarali faoliyatini nazorat qilishni ta'minlash boshqaruv tahlilining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holatini yaxshilash va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, avvalo, boshqaruv tahlilining samaradorligi hamda korxonada boshqaruv xodimlarining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy salohiyatiga bog'liqdir. Rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda boshqaruv tahlili operativ, joriy va strategik qarorlar qabul qilish uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ya'ni korxonada rahbarining boshqaruvchanlik qobiliyati iqtisodiy samaradorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishishning me'zoni ekanligini anglagan holda, bunga erishish uchun javobgarlik vazifasi yuklatilgan har bir xodimning xizmat vazifasini nazorat va tahlil qilib borish zarur. Chunki

boshqariluvchi xodimlar ish faoliyati samaradorligi boshqaruvchi xodimlarning qabul qilayotgan qarorlarining natijalariga bog'liqdir.

4. Bozor kon'yukturasidagi o'zgarishlarni, korxonaning baho siyosatini, raqobatbardoshligini, reklamaning samaradorligini, turli risklarning mavjudligi va ularni bartaraf qilish yo'llarini takomillashtirish maqsadida innovatsion boshqaruv tahlili usullaridan foydalangan holda yechimlar topish taklif etildi.

5. Donni qayta ishlash korxonalarida ta'minot zanjirini samarali boshqarish va moliyaviy manbalarni maqsadli taqsimlash maqsadida, moddiy ishlab chiqarish zaxiralarining holatini optimallashtirish uchun ABC (iqtisodiy muhim, o'rta ahamiyatli, past ahamiyatli) tahlili asosida uslubiy yondashuv taklif etildi.

6. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonining boshqaruv tahlilini amalga oshirishda uning uzluksizligini ta'minlash uchun moddiy resurslar hisobiga ishlab chiqarish davomiyligi ko'rsatkichidan foydalanish va mahsulot hajmi hamda ishlab chiqarish xarajatlarini uzviy bog'liqlikda tahlil qilib, iqtisodiy muvozanatni ta'minlash koeffitsientini qo'llash tavsiya etildi.

7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda xarajat-hajm-foyda (Cost-Volume-Profit) tahlili asosida moliyaviy barqarorlik zaxirasining omillarini tahlil qilish metodologiyasi ishlab chiqilib, bu metodologiyadan xarajatlarni nazorat qilish va strategik rejalarni tuzishda foydalanish tavsiya qilindi.

8. Mehnat resurslarining samaradorligini kompleks boshqaruv tahlili asosida baholash uchun samaradorlikni "yuqori" (85-100 ball), "yaxshi" (70-84 ball), "qoniqarli" (50-69 ball) va "past" (30-49 ball) ko'rsatkichlariga ajratish taklif etildi. Ushbu baholash natijalariga asoslanib, mehnat resurslarini boshqarish bo'yicha samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatlari yaratildi.

9. Kichik va o'rta biznes sub'ektlarining yuzaga kelishi, raqobatning kuchayib borishi donni qayta ishlash korxonalarida optimal ishlab chiqarish dasturlarini belgilash uchun marketing tadqiqotlarini olib borish zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarishni samarali tashkil etilishi uchun mavsumiylik indeksidan foydalanish tavsiya etildi.

10. Ilmiy asoslangan biznes rejalarni tuzishga, korxonalar imkoniyatlarini ochib berishga, marketing faoliyatida bozorda egallagan ulushini aniqlashga va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiluvchi marketing salohiyatini prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Umumiy xulosa qilinganda tadqiqot natijasida bildirilgan taklif va tavsiyalar ilmiy tadqiqotimiz ob'ekti hisoblangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarlar faoliyatida eng maqbul bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi va shu bilan birga respublikamiz iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlaydi.